

POSTED ON 07.10.2025 BY TEXNOADMINCHAGANIYAN

Har bir buyuk milliy yuksalishning poydevori – bu ma'rifatdir. Tarixga nazar tashlasak, yorqin misollarga guvoh bo'lamiz. O'zbekiston hududida kechgan Birinchi Renessans (IX-XII asrlar) davrida Imom Buxoriy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino kabi allomalar dunyo sivilizatsiyasiga tamal toshini qo'ydilar. Bu yuksalishning asosiy kuchi – madrasalar, kutubxonalar va ulardagi fidoyi ustozlar edi. Keyinchalik, Ikkinchi Renessans (XIV-XV asrlar) – Temuriylar davrida Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy kabi mutafakkirlar ilmiy va ma'naviy kashfiyotlar orqali Sharq shuhratini yanada yuksaltirdilar. Bu davrlarning barchasi, birinchi navbatda, o'qituvchi va ilm-fanga cheksiz e'tibor bilan bog'liq bo'lgan.

Bugun biz Yangi O'zbekiston deb atalayotgan, «Uchinchi Renessans» poydevorini qurishga bel bog'lagan davrda yashayapmiz. Prezident Shavkat Mirziyoyevning so'zlarida bu niyat aniq aks etadi. Xususan, BMTning 80 yilligiga bag'ishlangan nutqida davlat rahbari bu masalaga to'xtalib, ta'limning global ahamiyatini ta'kidladi. Davlat rahbarimizning: **“...Ustuvor maqsadimiz — mamlakatimizda yashayotgan har bir oilaning, har bir fuqaroning hayotini tubdan o'zgartirish, inson qadri va farovonligini oshirishdir. So'nggi yillarda O'zbekistonda kambag'allik darajasini 35 foizdan 6,6 foizgacha qisqartirishga erishdik. Bunga, avvalo, ta'lim va ilm-fan sohasini o'zgartirish, innovatsion tarmoqlar va texnologik sanoat korxonalarini barpo etish, «yashil» energetika va transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish, kichik biznesni har tomonlama rivojlantirish va natijada millionlab ish o'rinlari yaratish orqali erishmoqdamiz. Mamlakatimizda maktabgacha ta'lim qamrovi 27 foizdan 78 foizga oshdi, yoshlarimizning oliy ta'lim bilan qamrovi esa 9 foizdan 42 foizga yetdi. Eng asosiysi — o'qituvchi va ustozlik kasbining obro'si va nufuzini keskin oshirishga hal qiluvchi masala sifatida qaramoqdamiz. Pedagoglarning o'zaro tajriba va bilim almashishi uchun yagona xalqaro platformani yaratish maqsadida O'zbekistonda Butunjahon professional ta'lim sammitini o'tkazishni taklif etamiz.”** degan fikrlari, so'nggi yillardagi islohotlarning g'oyaviy asosi bo'lib xizmat qilmoqda. Bu iqtibos, Yangi O'zbekistonning ta'lim sohasiga bo'lgan strategik yondashuvini yaqqol ko'rsatib turibdi.

So'nggi yillarda pedagog xodimlarning sha'ni, qadr-qimmatini va jamiyatdagi nufuzini tiklash asosiy vazifaga aylandi. O'qituvchilarni o'ziga xos bo'lmagan majburiy ishlardan ozod qilish – bu nafaqat amaliy chora, balki davlatning ularga bo'lgan hurmat va ishonchini ifodalovchi muhim qadam bo'ldi.

Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, 2018-2023 yillar oralig'ida xalq ta'limi xodimlari oylik maoshlari bir necha barobar oshirildi, ayniqsa, yuqori malakali, toifali o'qituvchilar uchun rag'batlantirish tizimi sezilarli darajada kuchaytirildi. Prezident qarorlari asosida ilg'or va fidoyi o'qituvchilarning oylik ish haqi 40% dan 60% gacha miqdorda ustama olish imkoniyatiga ega bo'ldi. Misol uchun, oliy toifali o'qituvchilarning oylik maoshi, toifasiz o'qituvchining maoshiga nisbatan katta farq qilishi ta'minlandi, bu o'qituvchilarni uzluksiz kasbiy rivojlanishga undovchi omil bo'ldi.

Yangi O'zbekistonda ta'limga e'tibor – bu shunchaki oylik maoshni oshirish bilan cheklanib qolmadi. Tizimli islohotlar ta'lim jarayonining tub mohiyatiga kirib bordi. O'qituvchilarni eski andozalardan xalos etib, ularni XXI asr talablariga javob beradigan mutaxassislar sifatida tayyorlash ustuvor vazifa bo'ldi. Bu borada, Uzluksiz malaka oshirish tizimi: Endilikda o'qituvchi malaka oshirishda tanlov huquqiga ega bo'ldi. U faqat belgilangan davlat kurslarida emas, balki eng yaxshi xorijiy tajribalar asosida tashkil etilgan markazlarda o'qish imkoniga ega bo'lmoqda.

Xalqaro dasturlarga integratsiya: O'quv dasturlari PISA (o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy fanlardan savodxonligini baholash) kabi xalqaro baholash dasturlari talablari asosida takomillashtirilmoqda. Bu esa o'qituvchidan tanqidiy fikrlashni o'rgatish metodikalarini o'zlashtirishni talab etadi.

Ta'lim maskanlarining o'zi ham o'zgarmoqda. «Obod maktab» dasturlari doirasida har yili minglab maktablar qurilmoqda va ta'mirlanmoqda. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, so'nggi besh yilda O'zbekistonda yuzlab yangi maktablar qurilgan va 4 mingdan ortiq maktab tubdan rekonstruksiya qilingan. Bu ko'rsatkichlar ta'lim infratuzilmasini yaxshilashga davlat byudjetidan ajratilayotgan sarmoyalar hajmi bir necha barobar oshganidan dalolat beradi.

Shuningdek, «Raqamli O'zbekiston – 2030» strategiyasi doirasida maktablarni yuqori tezlikdagi internet bilan ta'minlash, elektron darsliklar va o'quv platformalarini joriy etish jadal bormoqda. O'qituvchining kompyuter savodxonligini oshirish, zamonaviy IT-texnologiyalarni dars jarayoniga singdirish bo'yicha maxsus dasturlar yo'lga qo'yildi. O'qituvchi endi faqat doska va bo'r bilan ishlovchi shaxs emas, balki raqamli pedagogga aylanmoqda.

Har ikki Renessansning yuksalishi ortida turgan asosiy kuch – bu tafakkurga, aqlga bo'lgan ishonch edi. Yangi O'zbekiston ham o'zining «Uchinchi Renessans»ining poydevorini qurishda aynan bilim va ma'rifatni asos qilib oldi. Bu jarayonda o'qituvchi – bosh qahramon, millat me'mori sifatida harakat qilishi lozim.

Ta'lim sohasiga bo'lgan e'tibor iqtisodiyot va siyosat darajasida belgilangan ustuvor yo'nalishga aylandi. Prezident Sh. Mirziyoyev o'z nutqlarida: **“... pedagoglar va professor-o'qituvchilar tarkibining professional darajasi, ularning maxsus bilimlaridir. Bu borada ta'lim olish, ma'naviy-ma'rifiy kamolot masalalari va haqiqiy qadriyatlarni shakllantirish jarayonlariga ko'mak beradigan muhitni yaratish zarur”**, deya bejiz ta'kidlamaydi. Davlatning pedagog kadrlar tayyorlash tizimiga yangicha yondashuvi: nufuzli xorijiy universitetlar bilan hamkorlikda yangi pedagogik institutlar tashkil etilishi, mavjud OTMLar faoliyatining tubdan yaxshilanishi bu so'zlarning amaliy ifodasidir.

2017 yildan so'ng Prezident maktablari, ixtisoslashtirilgan ijod maktablari va matematika, kimyo, biologiya kabi fanlarga ixtisoslashgan maktablar tarmog'i kengaytirildi. Bu maktablarda faoliyat olib borayotgan o'qituvchilarning oylik ish haqlari va yaratilgan sharoitlari boshqa maktablar uchun namuna vazifasini o'tamoqda. Bu, aslida, ta'lim sifatini oshirish uchun rag'batlantirish mexanizmi hisoblanadi.

Ta'limga e'tiborning bunday yangi darajasi, o'z navbatida, o'qituvchilar zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi. Endi ular shunchaki o'quv dasturini o'tish bilan cheklanib qolmasdan, o'quvchilarda milliy g'ururni, vatanparvarlikni, zamonaviy bilim va ko'nikmalarni shakllantirishlari shart.

Agar Birinchi va Ikkinchi Renessans allomalarining yutuqlari o'sha davrning fidoyi ustozlari mehnati evaziga qo'lga kiritilgan bo'lsa, Uchinchi Renessans O'zbekistoni bugungi o'qituvchilarning bilimga chanqoqligi, fidoyiligi va davlat ishonchini oqlashga bo'lgan g'ayratiga bog'liq.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, Yangi O'zbekistonning ta'lim sohasiga bo'lgan e'tibori – bu shunchaki ijtimoiy siyosat emas, balki mamlakatning kelajagini ta'minlashga qaratilgan fundamental, strategik investitsiyadir. Bu investitsiyaning eng muhim qismi esa o'qituvchiga – millat me'moriga qaratilgan ehtirom va qo'llab-quvvatlashdir.

Ulmas Muminov

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti “Tarix va falsafa” kafedrası o'qituvchisi, Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

Muxriddin Jo'rayev,

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti “Tarix va falsafa” kafedrası katta o'qituvchisi.

[YANGI O'ZBEKISTONDA O'QITUVCHI – MILLAT ME'MORI: TA'LIMGA E'TIBOR – KELAJAKKA POYDEVOR — "CHAG'ONIYON" ijtimoiy-siyosiy gazeta](#)